


Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2025-yil yanvar-oktabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida Xorazm viloyatida jami 10 284,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,9 % ni tashkil etdi.



Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	10 284,6	111,9
Urganch sh.	1364,3	117,2
Xiva sh.	627,4	128,8
Bog'ot	314,1	109,4
Gurlan	354,7	109,7
Qo'shko'pir	490,5	127,1
Urganch	997,6	111,7
Hazorasp	459,7	102,4
Tuproqqal'a	191,7	102,5
Xonqa	581,1	110,5
Xiva	684,4	103,2
Shovot	367,6	117,7


Yangiariq	365,5	116,1
Yangibozor	362,2	116,0
Mavzuga doir ko'rsatkichlar: Qurilish ishlari hajmi (oylik) Qurilish ishlari hajmi (yillik)		

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar- oktabr oylarida Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,3 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 3,6 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 171,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	364,5	602,7	11,2
<i>o'sish sur'ati, %</i>	192,3	102,5	186,2
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2 136,4	1 224,7	315,5
<i>o'sish sur'ati, %</i>	106,3	108,5	165,1
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	4 539,2		
<i>o'sish sur'ati, %</i>	107,1		

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)
[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)
[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-oktabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 092,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 128,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,3 % ga ko'payib, 10,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 40,5 % i to'g'ri kelib, qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,2 % ni tashkil etgan holda 4 163,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 51,0% ni yoki 5 028,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi.

[Korxona turlari bo'yicha bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari](#)



**Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Xorazm viloyati	1 092,0	4 163,9	5 028,7	128,5	114,2	107,1
Urganch sh.	209,9	928,8	225,7	59,1	149,8	119,1
Xiva sh.	22,0	477,5	127,9	106,0	129,2	132,2
Bog'ot	88,4	99,9	125,8	163,4	84,3	110,0
Gurlan	9,5	236,0	109,3	101,8	142,9	73,3
Qo'shko'pir	98,7	223,8	168,1	860,2	99,2	112,9
Urganch	175,3	503,5	318,8	365,0	93,7	103,7
Hazorasp	11,7	174,3	273,7	81,1	90,0	113,7
Tuproqqal'a	24,9	110,6	56,2	97,3	259,2	47,2
Xonqa	130,7	227,1	223,3	134,2	102,2	108,3
Xiva	181,3	353,2	149,9	164,7	79,9	135,9
Shovot	12,8	222,3	132,5	130,1	137,0	94,3
Yangiariq	6,1	202,8	156,6	69,4	123,3	110,6
Yangibozor	21,0	166,0	175,2	129,1	99,8	135,2

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qo'shko'pir tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 8,6 m.), Urganch tumani (3,7 m.) va Xiva tumanida (1,6 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Tuproqqal'a tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,3 m.), Urganch shahar (149,8 %) va Shovot tumanida (137,0 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

B. Tillayev
62 227-77-88 (9020)

Manzil:

